

Tijorat Banklarning Moliyalashtirish, Kreditlash Siyosati va Ularning Hususiyatlari

Davlatboev Begzod,

Master of Tashkent State University of Economics, MKB-01-1 group, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: Ушбу тезисда тижорат банкларининг молиялаштириш ва кредитлаш сиёсати тушунчаси, банкларда кредитлаш сиёсатининг амалдаги ҳолати таҳлил қилинган. Ундан ташқари тижорат банкларининг молиялаштириш ва кредитлаш сиёсатини такомиллаштириш бўйича муаллиф хулоса ва таклифлар келтирилган.

Key words: financing, lending policy, investment, kredit turlari, ROA.


Hozirgi kunda tijorat banklarning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, korxonalar hamda tashkilotlar, kompaniyalar, shuningdek, milliy iqtisodiyotimizda moliyalashtirish, kreditlash va investitsiya faoliyatining rivojlanishida ularning kapital mablag‘larini ko‘paytirishdagi o‘rni va ahamiyati bevosita tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish va kreditlash siyosatni qanday amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘lmoqda. Respublikamizda aholining moddiy farovonligini ta‘minlashda tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish va kreditlashning o‘rni benihoya kattadir. Sababi, aholini ish bilan ta‘minlanishini yanada oshirish va mamlakatimizda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarilishini rag‘batlantirishda, ichki talab barqarorligini ta‘minlashda moliyalashtirish va kreditlash siyosati lokomotiv vazifasini bajaradi.

Kredit siyosatining mavjudligi, eng muhimi - barcha darajalarda ishlab chiqilgan siyosatga rioya etish bank ssuda portfelini sifatli boshqarish uchun asos bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, uning qarzdorlari va aksiyadorlari foydasini ko‘paytiradi va farovonligini oshiradi.

Kredit siyosati kredit berish jarayoniga jalb etilgan kredit xodimining lavozimi va vakolatlariga qarab ularning har biri uchun kreditlash to‘g‘risida qaror qabul qilish va kredit miqdorini cheklash tartibini belgilab beradi. Kreditlash uchun mas‘ul bo‘lgan barcha shaxslar vakolatlari kredit siyosatida qayd etiladi.

Quyidagi 1-rasmda bank kredit siyosati tamoyillari keltirilgan.

Kredit qo‘mitasi majlislari va uning bank boshqaruvi organlari oldida hisobot berishi davriyligi ham kredit siyosatida belgilab qo‘yilishi kerak. Kredit siyosati kreditlashning turli ko‘rsatkichlari (kredit turlari, iqtisodiyot tarmoqlari, jo‘g‘rofiy hududlar va b.) bo‘yicha kreditlarning to‘planishi darajasini aniqlash va uni monitoring qilish to‘g‘risidagi talablarni o‘z ichiga olishi zarur. Kredit siyosati muntazam ravishda rahbariyatga topshiriladigan tegishli hisobotlarni tayyorlashga doir talablarni belgilashi lozim.



1-rasm. Bank kredit siyosati asosiy tamoyillarga ajralishi (Azizov U.O' va boshqalar, 2016)

Kreditni to'lash muddati uni to'lashning birlamchi va ikkilamchi manbalarini sinchiklab baholash asosida belgilanishi kerak. Kredit siyosat rahbariyat nuqtai nazaridan har xil toifa va turdagi kreditlarni to'lashning ma'qul dasturlaridan iborat bo'lishi zarur. Kredit siyosati kreditlar berishning maksimal muddatlarini belgilashi lozim. Ushbu siyosat shuningdek kreditning asosiy so'mmasini kredit to'lash muddatining so'ngida va kredit to'lashning boshlang'ich muddati uzaytirilayotganda qaytariladigan kredit turlarini berish tartibini ham o'z ichiga olishi kerak.

Kredit siyosati to'lovlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, mablag'larning qaytarilishi va berilgan kreditlar bo'yicha qarzdorlikni undirib olish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak. Bank kredit siyosati kredit berish bosqichida ham, keyingi monitoring bosqichlarida ham jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olishi kerak. Moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish, naqd pul oqimi va boshqa ma'lumotlar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish yuzasidan qo'yiladigan talablar aniq ifodalanishi zarur. Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, banklar talab qiladigan ma'lumotlar Milliy Buxgalterlik Hisobi Standartlariga (MBHS) muvofiq taqdim etilishi kerak.

Kredit siyosatida potensial qarzdorlarning kredit qobiliyatini (likvidlik, qoplanish, muxtorlik koeffitsientlari, kapitallashtirish darajasi, garov ta'minoti ekspertizasi va b.) aniqlash uchun ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish tadbirlari batafsil yoritilishi lozim. Bank qarzdorlarning kredit qobiliyati mezonlari va ularni baholash metodikasini aniq belgilab olishi kerak.

Kredit siyosati muayyan turdagi qimmatliklar garovi asosida beriladigan ssudalarning maksimal miqdori limitlarini o'z ichiga olishi hamda ta'minlangan ssudalarning har bir turi uchun kredit hujjatlari to'plamini rasmiylashtirish tadbirlarini belgilashi lozim. Bank kredit siyosatida garov kreditlashning uni berish vaqtidayoq kreditni to'lash manbasi hisoblangan yagona asosi bo'lmasligi belgilab qo'yilishi zarur.

Kredit siyosati garovga olingan mulk turiga qarab garov mavzuiga nisbatan qo'yiladigan talablar va kreditning garov qiymatiga nisbatini o'z ichiga olishi kerak. Mazkur bandda garov mavzui sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish lozim bo'lgan paytda yuzaga

kelishi mumkin bo'lgan zarar o'rnini qoplashi lozimligi aniq yoritilishi zarur.

Hujjatda garov mavzui mustaqil baholovchi va ichki bank baholovchisi tomonidan baholanadigan hollar ko'rsatib o'tilishi kerak. Turli garov toifalarini baholash uslublari batafsil aks ettirilishi lozim. Siyosat ko'chmas mulk, ishlab chiqarish jihozlari va iste'mol kreditlarini moliyalash uchun beriladigan kreditlarni to'lash hisobiga qarzdor tomonidan bo'nak to'lovlarini kiritishga doir muayyan talablarni o'z ichiga olishi zarur. Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim. Kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari kerak. Qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek bank boshqaruvi va kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Hisobotlarda ahvolning yomonlashishi, yashirin zararlar sabablari va sog'lomlashtirish rejalari batafsil bayon etiladi. Kredit siyosat qarzlarni qaytarishga doir izchil bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Raxbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosati turli kreditlar va qarzdorlar bo'yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniqlashda foydalaniladigan omillarni o'z ichiga olishi kerak. Bunda hech bo'lmaganda resurslar qiymati, kredit bo'yicha xizmat ko'rsatishga doir kutilayotgan harajatlar, vositachilik haqi, ma'muriy sarflar, ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar va bank marjasi baholanishi zarur.

Kredit siyosati bank bilan bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlar bo'yicha Markaziy bank talablariga muvofiq keluvchi limitlarni o'z ichiga olishi lozim.

Kredit siyosatida bank bilan bog'liq shaxslar bilan bitimlarni qisqartirish yoki ularni to'zishning har qanday imkoniyatlarini bartaraf etish maqsadida bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlarni tasdiqlash va qayta tiklash tartibi va tadbirlari belgilab qo'yilishi kerak.

Kredit siyosatida kafolatlar va akkreditivlarning maqsadi va ishlatilishi, mansabdor shaxslarning bunday majburiyatlarni chiqarishga doir vakolatlari va bunday vositalar chiqarilishi mumkin bo'lgan hollar, shuningdek ularga doir hujjatlar va hisobotlarga nisbatan qo'yiladigan talablar batafsil yoritilishi lozim.

Siyosat bank kredit portfelini vaqti-vaqti bilan baholashga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ro'yxatini belgilashi hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va to'zishlar minimal yuzaga keluvchi yo'qotishlar bilan kiritilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo'yishi lozim.

Tahlil maqsadlari kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosati muvofiqligini ta'minlash va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tadbiri, moliyaviy tahlil, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilish.

Kredit siyosati bank xizmatlari va bo'linmalari tomonidan Bank Boshqaruvi va Kengashiga kreditlashning turli jihatlari bo'yicha topshiriladigan hamda kredit portfeli sifati va kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlar turi va davriyligini belgilashi lozim. Hisobotlar filiallar va bank bo'yicha umuman kreditlash vositalari va

yoʻnalishlariga qarab tavakkalchiliklarni baholash uchun boshqarishning turli darajalariga moslashtirilgan hamda batafsil yoritilgan boʻlishi kerak (<https://tengebank.uz>).

Rivojlangan horijiy davlatlarning yirik tijorat banklarida kredit siyosati toʻgʻrisida yozma memorandum qabul kilinadi. Memorandumda kredit siyosatining umumiy maqsadi aniq aks ettiriladi. Memorandumda kreditlash shakllaridan foydalanish tartibi, kredit siyosatining ustivor yoʻnalishlari, kreditlarga foiz hisoblash, ularni undirish va balansdan oʻchirish masalalari aniq aks ettiriladi. Kredit siyosati toʻgʻrisidagi memorandumda bankning kredit eqspansiyasini amalga oshirish lozim boʻlgan geografik hududlar anich aks ettiriladi.

Banklar ishonchligi deganda ularning oʻz mijozlari oldidagi majburiyatini, yaʼni birinchi talab bilanoq amalga oshirish layoqatiga ega boʻlgan faoliyatini tushunamiz. Ishonchlikka erishish uchun esa banklar likvidlik va toʻlov qobiliyatiga ega boʻlishi, barqarorlik lozim.

Bank barqarorligi banklar oldidagi mavjud barcha funksiyalarni toʻliq bajarish, demakdir.

«Bank tizimi barqarorligi – bu Markaziy bank va tijorat banklari faoliyatini, oʻz funksiyalarini toʻlaqonli bajara olishlarini taʼminlash imkonini beradigan darajadagi barqaror holatidir».

Bank tizimi barqarorligini har qanday sharoitda, erishilgan darajani saqlab qolgan holda rivojlanish, taraqqiyot sari intilish, deb baholash maqsadga muvofiqdir.

Bank tizimi barqarorligini taʼminlash Oʻzbekiston Respublikasi pul-kredit siyosatining eng asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Banklar rentabelligini oshirib borish ularning barqarorligini taʼminlashda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklari yoki bank tizimi aktivlari rentabellik (ROA) koʻrsatkichlarini doimiy tahlil etib borishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ayni koʻrsatkich orqali bank risklarini baholash imkoniyati paydo boʻladi. ROA ni tahlil etish natijasida banklarning kredit riski, foiz riski, likvidlik riski, operasion risk hamda bank foydalilik darajasiga taʼsir etuvchi har qanday risklarni baholash imkoni paydo boʻladi.

Barcha rivojlangan horijiy davlatlarda kreditlash bilan bogʻliq operatsiyalar bank aktiv operatsiyalarining asosiy turi boʻlib qolmoqda. Masalan, oxirgi oʻn yillikda AQSh tijorat banklarining kreditlash operatsiyalari ularning aktiv operatsiyalarining 60 foizini tashkil qildi. Bu koʻrsatkich Fransiyada - 65,6 foizni, GFR da - 53,0 foizni, Italiyada - 48,7 foizni, Gollandiyada - 47,1 foizni, Daniyada - 56,0 foizni, Ispaniyada - 66,4 foizni, Angliyada - 63,5 foizni tashkil qildi.

Shuni taʼkidlash joizki, hozirgi vaqtda horijiy banklar amaliyotida jismoniy shaxslarga beriladigan ssuda operatsiyalari hajmi oʻsib bormoqda. Masalan, Fransiya va Germaniyada bunday ssudalar miqdori korxonalar va tashkilotlar oladigan ssudalar miqdori bilan tenglashadi, AQSh da esa bunday ssudalar miqdoriga koʻra birinchi oʻringa chiqdi. Tijorat banklarining jismoniy shaxslar bilan amalga oshiradigan operatsiyalarini shartli ravishda ikki yirik guruhga boʻlish mumkin: isteʼmol krediti va uy - joy krediti. Isteʼmol krediti deganda, odatda tovarlar sotib olish maqsadida beriladigan kreditlar tushuniladi. Bunday kreditlar iqtisodiy rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan. Ular aholining tovarlarni sotib olish talabini ragʻbatlantiradi. Ayniqsa, oʻrtacha daromad koʻradigan shaxslar isteʼmol kreditidan keng foydalanadilar. Rivojlangan horijiy davlatlarda individual mijozlarga beriladigan ssudalar ichida ahamiyatiga koʻra ikkinchi oʻrinni ipoteka ssudalari egallaydi.

Halqaro bank amaliyotida uy - joy kreditining muddati 7 yildan 20 yilgacha, ayrim hollarda

30 yilgacha belgilanadi. Bunday kreditlar yuqori foiz riskiga ega, chunki bu muddat mobaynida jalb qilingan resurslarning baxosi oshishi mumkin. Shuning uchun tijorat banklari uy – joy kreditini berishda suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalanadilar.

Quyidagi 1-jadvalga ma'lumotlariga ko'ra, investitsion kreditlash bo'yicha 2018 (18,8%) va 2019 yilda (26,5%) eng katta ulush tadqiqot ob'ekti bo'lgan "Asakabank" hissasiga to'g'ri kelgan va 2017 yilga nisbatan 8887 mlrd. so'm yoki 7,4 martadan ziyodga oshgan. 2020 yilda, aksincha pasayish yuz bergan (7,077 trln. so'm). Jumladan, "Milliy bank"da bu miqdor tahlil davrida o'sib borgan va 2017 yilga nisbatan 2020 yilda 6,24 martaga oshgan. Umuman olganda, respublika bo'yicha investitsion kreditlash hajmi tahlil davrida 7,24 martaga o'sgan holda unda, asosan, 8 ta bankning faolligi kuzatilgan, ya'ni ularning investitsion kreditlar bozorida ulushi 2019 yilda 82,5 %ni, 2020 yilda esa 76,1 %ni tashkil etgan.

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan investitsion kreditlarning o'sish dinamikasi, mlrd. so'mda (1-yanvar holatiga)

№	Tijorat banklari nomi	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2020 yilda 2017 yilga nisbatan, +/-
1	Asakabank	1 381	3 017	10 268	7 077	5 696
2	Milliy bank	2 539	2 914	9 847	15 862	13 323
3	O'zsanoatqurilishbank	1 540	1 842	3 562	13 115	11 575
4	Qishloqqurilishbank	1 191	1 178	1 256	4 624	3 433
5	Ipotekabank	938	1 173	2 801	9 668	8 730
6	Agrobank	831	1 034	2 296	7 925	7 094
7	Xalq banki	833	978	1 251	5 758	4 925
8	Mikrokreditbank	448	567	681	3 134	2 686
9	Boshqa banklar	2 501	3 381	6 786	21 149	18 648
	JAMI	12 202	16 085	38 748	88 312	76 110

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging yillik (www.cbu.uz) hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Iqtisodiyotda banklarning investitsion kreditlash hajmining ortishi ular bo'yicha xatarlar ham oshishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa amalda muammoli kreditlar hajmi ortishiga o'z aksini topgan.

Quyidagi 2-jadvaldan ma'lumki, tahlil etilgan davrda muammoli kreditlar hajmi o'sib borgan, biroq, ularning jami kreditlar tarkibidagi ulushi sezilarli miqdorga ega emas. Va'ni bu ko'rsatkich 2017 yildagi 0,29 %dan (eng kichik ulush), 2020 yilga kelib 1,5 %ga oshganligi qayd etilgan, ammo, shunga muvofiq tarzda ularga nisbatan majburiy zahiralarning ham tashkil etilganligini e'tiborga molikdir. Tahlil etilgan davr mobaynida investitsion kreditlar yo'qotilishiga qarshi zahiralarning umumiy kreditlar bo'yicha ulushi qariyb 2 martaga oshganligi e'tiborga molikdir.

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo'yicha yuzaga kelgan muammoli kreditlar va unga qarshi tashkil etilgan majburiy zahiralarning tahlili (1-yanvar holatiga)

№	Ko'rsatkichlar	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2020 yilda 2017 yilga nisbatan, %
1	Muammoli kreditlar hajmi, trln. so'm	1,119	2,216	2,567	3,2	2,86 marta
2	Shartli qayta ko'rib chiqilgan kreditlar, trln. so'm	0,793	1,821	2,233	3,01	3,8 marta
3	Muddati o'tgan kreditlar, mlrd. so'm	256	305	256,7	315	23,0%
4	Sud jarayonidagi kreditlar, mlrd. so'm	71	90	77	113	1,6 marta
5	Umumiy kreditlarda muammoli kreditlar ulushi, %	0,29	1,01	0,97	1,5	1,21 f.p.
6	Umumiy kreditlarda muammoli kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga nisbatan tashkil etilgan zahiralarning ulushi, %	1,09	2,02	1,66	2,14	1,05 f.p.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik (www.cbu.uz) hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Biroq, shuni ham ta'kidlash lozimki, bank qanchalik kredit bozorida asosiy ishtirokchiga aylanib borsa, uning muammoli kreditlar girdobiga tortilib borish xavfi shunchalik ortib boraveradi.

Banklar tomonidan iqtisodiyotning kreditga bo'lgan talabini qondirish va tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlariga 2021 yilda 166,7 trln. so'm miqdorida yoki kreditlash bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichga (130 trln. so'm) nisbatan 28 foizga ko'p kreditlar yo'naltirildi. Ushbu kreditlarning 76 foizi (126 trln. so'm) korporativ mijozlarga va 24 foizi (41 trln. so'm) aholiga ajratilgan.

O'z navbatida, banklarda kreditlarni qarzdorlar qirqimida undirish ishlari samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni bank aylanmasiga qaytarishda "Pre-collection" (0), "Soft-collection" (1-30), "Hardcollection" (30+), "Legal-collection" (90+) kabi zamonaviy yondashuv usullaridan foydalanilganligi natijasida kreditlarning qaytuvchanlik darajasi 2021 yilda 59 foizdan 71 foizgacha oshdi, kredit qo'yilmalarining o'sish sur'atlari nominal YaIM o'sish sur'atlari (18 foiz) doirasida shakllandi.

3-jadval

"Asakabank" jami kreditlarining risk darajasi bo'yicha taqsimlanishi va zahiralarning yaratilishi, mlrd. so'm

Yil	Jami investitsion kreditlar summasi	Standart, %da	Maxsus zahira, %	Substandart, %da	Maxsus zahiralarning ulushi, %	Qoniqsiz, %da	Maxsus zahiralarning ulushi, %	Subhali, %da	Maxsus zahiralarning ulushi, %	Umidsiz, %da	Maxsus zahiralarning ulushi, %	Zahiralarning jami summasi
2015 y	3423,0	91,53	0,00	5,75	19,72	0,45	3,89	2,00	34,17	0,27	9,33	67,11
2016	5318,	92,85	49,4	5,74	27,33	0,36	4,81	0,92	24,66	0,12	6,47	112,6

y	7											6
2017	15811				129,4							356,3
y	,6	90,36	142,9	8,17	3	0,88	33,21	0,53	42,23	0,05	8,57	4
2018	24750				257,2							545,3
y	,4	87,20	215,8	12,20	3	0,29	18,93	0,19	23,31	0,12	30,06	3
2019	26321				189,9							712,2
y	,8	92,02	242,2	6,27	5	1,03	87,53	0,22	36,86	0,47	7	1
2020	30422				115,0							642,5
y.	,4	94,42	287,2	3,78	0	1,14	86,70	0,31	47,15	0,35	8	3
2021	34122											558,0
y.	,0	96,75	330,1	2,23	76,09	0,62	52,89	0,22	37,53	0,18	61,42	3
2022	37685						114,0		261,9			886,2
y.	,0	95,17	358,6	2,11	79,52	1,21	0	1,39	1	0,12	45,22	5
2023	36742											
y.	,0	95,35	350,3	2,07	76,1	1,06	97,4	1,47	270,1	0,05	183,7	977,6

Manba: ATB “Asakabank”ning yillik hisoboti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi 3-jadvaldan ma’lumotlaridan ko’rinadiki, “Asakabank” jami kreditlarining risk darajalari bo’yicha taqsimlanishi belgilangan me’yor darajasida bo’lib, muammoli investitsion kreditlar hajmini belgilangan talab doirasida saqlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish bank oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shunga ko’ra, “Asakabank” AJ ushbu muammoni hal etish maqsadida majburiy zahiralarini kamida minimum talab darajasida tashkil etishga muvaffaq bo’lgan. Buning natijasida 5 ta toifadagi aktivlar bo’yicha, ba’zan, maksimum darajadagi zahiralar shakllantirilishi ta’minlangan.

O’zbekiston Respublikasi tijorat banklarida moliyalashtirish siyosatini takomillashtirish mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan quyidagi takliflarni kiritish mumkin:

- tijorat banklarining uzoq muddatli investitsion kreditlari hajmini oshirish yo’li bilan ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash zarur;
- kreditlar bo’yicha ta’minotga olingan ta’minot manbalari bank tomonidan kreditni qoplashning asosiy manbai deb hisoblanmasligi kerak, ta’minot manbasi kreditni to’lashni ikkilamchi manbai sifatida qaralishi kerak;
- uchinchi shaxsning kafolati ostida kredit berish amaliyotini qisman kamaytirish va uchinchi shaxsning kafolati ostida kredit berish tizimini takomillashtirish;
- mijozlarning har bir xo’jalik faoliyatining aniq holatida kreditga bo’lgan ehtiyojini to’laroq ravishda qondirish maqsadida kredit usullaridan to’laqonli foydalanishni yo’lga qo’yish lozim;
- kredit portfelini tarmoqlar bo’yicha diversifikatsiyalash darajasini oshirish lozim;
- halqaro bank amaliyotida shunday holatlar ham ko’zga tashlanadiki, ayrim tijorat banklari mijozning moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida unga qo’shimcha pul mablag’lari beradi;
- monitoring o’tkazish grafigini tuzish kerak;

- foiz stavkalarini belgilashda aniq faktlarga asoslagan holda amalga oshirish;
- kreditlash jarayonida kredit byurolari axborotidan foydalanish;
- garovga nisbatan ko'yiladigan talablarni takomillashtirish;
- kreditlash jarayonida ko'proq kredit oluvchi mijozning shaxsini o'rganish lozim. Uning xulq atvori, kredit tarixi mukammal o'rganilishi kerak;
- amaliyotda suzib yuruvchi % stavkalarini qo'llash;
- investitsion loyihalarni moliyalashtirish tizimining zamonaviy turlaridan samarali foydalanish mumkin;
- investitsion loyihalarni moliyalashtirishda horijdan investitsiyalar jalb qilish dolzarb masala bo'lib turibdi;
- mahalliy resurslarni investitsion loyihalar safarbar etish bo'yicha vakolatlarini kengaytirish orqali imtiyozlar berish berishni maqbullashtirish hamda hududlarni rivojlantirish tadbirlari uchun yo'naltirishga erishish imkoniyati yaratiladi.

List of used literature

1. Azizov U.O'. va boshqalar. Bank ishi. Darslik. -T.: "Fan va texnologiya", 2016 y., - 330-bet.
2. Mamadiyarov, Z. (2020). А ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ РЕАЛ СЕКТОР КОРХОНАЛАРИНИ КРЕДИТЛАШДАГИ АҲАМИЯТИ. Архив научных исследований, 1(25). извлечено от <https://ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2592>
3. Mamadiyarov, Z. (2020). CAUSES OF PROBLEM LOANS IN COMMERCIAL BANKS AND WAYS TO REDUCE THEM. Archive of Scientific Research, 1(26). извлечено от <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2593>
4. АТВ "Asakabank"ning yillik hisoboti ma'lumotlari
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking yillik (www.cbu.uz) hisoboti ma'lumotlari
6. <https://tengebanc.uz/storage/app/media/kreditnaya%20politika%20UZB.pdf>